

5-Aprel, 2026-yil

“BIR TUNLIK BAXT VA UMRBOQIY ARMON” DOSTOYEVSKIY
TALQINIDA

Orifjonova Muxlisa Kamol qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Email: muxlisaorifjonova79@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Fyodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” qissasi asosida sevgi tushunchasining badiiy-falsafiy talqini chuqur tahlil qilinadi. Asarda muhabbat romantik tuyg‘u sifatida emas, balki yolg‘izlikdan tug‘ilgan ruhiy ehtiyoj, orzu va armonning murakkab birligi sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Qahramon kechinmalarining psixologik mohiyati ochib berilib, qisqa muddatli baxt va umrboqiy armon o‘rtasidagi ziddiyat markaziy g‘oya sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Dostoyevskiy talqinida sevgi baxtga eltuvchi vosita emas, balki inson ruhining yetilishiga xizmat qiluvchi sinovdir. Shu jihatdan “Oydin tunlar” qissasi sevgi haqida emas, balki insonning o‘zini anglash jarayoni haqidagi falsafiy-psixologik asar sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar; *Dostoyevskiy, Oydin tunlar, Nastinka, sevgi talqini, yolg‘izlik, armon, qisqa muddatli baxt, o‘zini anglash.*

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the artistic and philosophical interpretation of love in Fyodor Dostoevsky’s White Nights. In the work, love is presented not as a romantic feeling, but as a complex unity of spiritual need, loneliness, dreams, and longing. The psychological nature of the protagonist’s experiences is revealed, and the conflict between short-term happiness and lifelong regret is highlighted as the central idea. The results of the study show that, in Dostoevsky’s interpretation, love is not a means of attaining happiness, but a trial that contributes to the spiritual maturation of the human soul. From this perspective, White Nights is interpreted not as a story about love, but as a philosophical and psychological work about the process of self-awareness.*

Keywords: *Dostoevsky, White Nights, Nastenka, interpretation of love, loneliness, regret, short-term happiness, self-awareness.*

Аннотация: *В данной статье проводится углублённый анализ художественно-философского осмысления любви в повести Фёдора Достоевского “Белые ночи”. В произведении любовь представлена не как романтическое чувство, а как сложное единство духовной потребности, одиночества, мечты и тоски. Раскрывается психологическая сущность переживаний героя, а конфликт между кратковременным счастьем и пожизненной тоской выдвигается в качестве центральной идеи.*

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Aprel, 2026-yil

Результаты исследования показывают, что в трактовке Достоевского любовь является не средством достижения счастья, а испытанием, способствующим духовному становлению человеческой личности. С этой точки зрения повесть “Белые ночи” интерпретируется не как произведение о любви, а как философско-психологическое сочинение о процессе самопознания.

Ключевые слова: Достоевский, Белые ночи, Настенка, интерпретация любви, одиночество, тоска, кратковременное счастье, самопознание.

KIRISH

Jahon adabiyotida sevgi mavzusi eng qadimiy va eng ko'p talqin etilgan mavzulardan biridir. Biroq har bir ijodkor bu tuyg'uga o'zining estetik qarashlari, ruhiy tajribasi va falsafiy dunyoqarashi asosida yondashadi. Fyodor Dostoyevskiy ijodida sevgi romantik ideal sifatida emas, balki inson ruhining murakkab va ziddiyatli holatlarini ochib beruvchi psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. “Oydin tunlar” qissasi yozuvchining ilk psixologik asarlaridan biri bo'lib, unda — yolg'izlik, orzu, armon va ruhiy iztirob muammolari yorqin aks etgan. Asarning tashqi syujeti sodda: ikki yolg'iz insonning qisqa uchrashuvi va ayriligi tasvirlanadi. Ammo ichki mazmun jihatidan bu qissa inson qalbining eng nozik qatlamlarini ochuvchi falsafiy-psixologik asardir.

Fyodor Mixailovich Dostoyevskiy (1821–1881) XIX asrning eng chuqur psixologik realizm namoyandasi sifatida tanilgan. Uning “Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar”, “Iblislar”, “Telba”, “Qimorboz”, “Yer ostidan maktublar” kabi asarlari inson qalbi tub-tubidagi qarama-qarshiliklarni ochishda beqiyos ahamiyatga ega. Dostoyevskiy asarlarida jamiyatdan chetda qolgan, ijtimoiy va ruhiy bosim ostidagi qahramonlar asosiy markazda turadi. “Oydin tunlar” esa uning romantik kechinmalar bilan sug'orilgan, ammo baribir psixologik ruhiyati yetakchilik qilgan ilk yirik asarlaridan biridir [1].

Asosiy qism. Asar syujeti juda sodda, hajman oz ko'ringaniga qaramay, undagi ruhiy qatlam nihoyatda murakkab. Ushbu asar boshlanishiga ajib tarif mavjud: “Faqat bir zungina qalbingga yaqin turmoq uchun u yo tug'ilganmikin!..” (I. Turgenev)

Ayni shu satrlar ostidan boshlanadi asar, ayni shu jumla qatlariga yashiringan bir tuyg'u ifoda etiladi satrma-satr. Bir zungina... To'liq baxtni his qila olish uchun tashqaridan kichik ko'rinadigan katta fursat – bu! O'zgasiga atalgan o'zga sevgini o'ziga qarashli deb o'ylash va aynida adashish bu! Bu baxt – eng badbaxt!.. Tan olish joizki, asar ilk satrlardan kitobxonni o'ziga butunlay jalb etib olib, ajib bir muammalikni muhokama qilishga majbur etadi. Hamda asarni yanada jozibadorlik darajasini oshirgan yana bir qism bu boshqa asarlardan farqli o'laroq bosh qahramon — ismi berilmagan “yosh xayolparast” — Sankt-Peterburgning oydin tunlarida o'zining xayolot dunyosida yashaydi. Uning borlig'i ikki qutbga bo'linadi: real hayot — kunduzgi yolg'izlik, odam bilan aloqa qilolmaslik, jamiyatga qo'shilmaslik; fantastik hayot — tunlardagi tasavvurlar, orzudagi muhabbat, romantiklik. Bu ikki olam qarama-qarshiligi.

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Aprel, 2026-yil

Qahramonning Nastenka bilan uchrashuvi — bu bir tunlik baxt, ammo u barqaror hayotiy hal qiluvchi moment emas. Shu lahzada Dostoyevskiy romantik orzu bilan real haqiqat o'rtasidagi ziddiyatni chuqur ko'rsatadi. Qahramon o'zini sevgi orqali anglashga harakat qiladi, ammo Nastenkaning real qarorlari uning ideal tuyg'ulari bilan mos kelmaydi. Natijada baxt vaqtinchalik, armon esa doimiy bo'ladi. Dostoyevskiy muhabbatni shunchaki hissiy holat emas, balki ruhiy sinov, inson ichki yetilishining katalizatori sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan qissa faqat sevgi haqida emas, balki orzu va haqiqat, ideal va real hayot o'rtasidagi psixologik qarama-qarshiliklarni ochib beradi [2].

Asardagi eng kuchli lavhalardan biri shundan iborat:

“Sening qo'llaring sovuq, meniki esa olovdek issiq, shunchalik ko'rsanki, Nastinka”.

Bu yerda Dostoyevskiy qahramonning hissiyotlarini to'g'ridan-to'g'ri, bevosita his qilishimizga imkon beradi. Sovuq va issiqning kontrasti orqali u nafaqat fizik yaqinlikni, balki ruhiy yaqinlik, ichki isyon va sevgi bilan bog'liq armonni ham ifodalaydi. Shu lahza qahramon uchun bir tunlik baxtni beradi, ammo real hayot bilan yuzlashganida bu baxt barqaror bo'lmaydi va umrboqiy armonga aylanadi. Shu sababli, bu satr bir tunlik baxt va umrboqiy armon g'oyasini eng jonli va kuchli tarzda ochib beradi. Qahramonning ruhiy portreti va sevgi talqini shu jumla orqali kitobxon yoki tinglovchiga bevosita yetib boradi, asarning hissiy kuchini oshiradi.

Yigitning ichki kechinmalari, xayol va haqiqat orasidagi kurashi, muhabbatga bo'lgan umidi va undan ayrilish og'rig'i o'quvchini larzaga soladi. Ayniqsa, oxirgi sahifalarda his etiladigan chuqur iztirob yurakni zirqirataadi. Shunga qaramay, bu iztirob ichida ham bir go'zallik va poklik mavjud — bu inson qalbining chinakam sevgi va orzular bilan yashashga qodirligini ko'rsatadi. “Oydin tunlar” oddiy muhabbat hikoyasi emas. Bu — qalb monologi, ichki dunyo sayohati, inson ruhining oydin, ammo yolg'iz tunlardagi armonli kuyidir. Har bir inson qalbida yashirin bir orzu, yuragingning chekkasida esa aytilmagan armon yashaydi. “Oydin tunlar” ana shu ichki armonlarga yuz tutgan asar bo'lib, jimjimador gaplar bilan emas, yurakdan chiqqan sadoqat bilan larzaga soladi. Qahramonning Nastenkaga bo'lgan tuyg'ulari — bu oddiy sevgi emas, balki ruhni najotga chorlaydigan, qulash arafasida ushlab qoladigan muhabbat edi. Ammo ba'zan eng yorqin tuyg'ular ham eng qorong'u yakunlarga olib boradi. Shu nuqtada asardagi yigitning hissiyotlaridagi kulminatsiyani quyidagi so'zlar orqali his qilish mumkin:

“Men ranjirmidim Nastenka? Men sening tiniq, osoyishta baxtingga qora bulutni ravo ko'rarmidim? Senga achchiq qilib nozik dilingni dog'larmidim, saodatli daqiqalaringda toza yuragingni xunob bo'lib xafagazak tepishini xohlarmidim, sen u bilan birga mehrobgan borgan paytlaringda qora sochlaringga tang'ilgan nafis gullardan birortasi ezilishini istarmidim... O, hech qachon, osmoning hamisha tiniq bo'lsin, yoqimtoy jilmayishlaring hamisha nurli va xotirjam bo'lsin, o'zingdan behad minnatdor bo'lgan begona, yolg'iz bir qalbgan baxsh etganing oniy halovat va baxt uchun hamisha baxtli bo'!”

Ushbu lavha qahramonning ichki dunyosini, orzu va haqiqat, baxt va armon o'rtasidagi ziddiyatini eng jonli va hissiy tarzda ochib beradi. Bu satr orqali Dostoyevskiy

5-Aprel, 2026-yil

sevgi va inson ruhiyatini nafaqat hissiy, balki falsafiy kontekstda ham chuqur talqin qiladi [3].

Xulosa qilib aytganda, “Oydin tunlar” qissasida sevgi nafaqat romantik tuyg‘u, balki inson ruhining eng chuqur ehtiyojlari va ichki kechinmalari orqali talqin etiladi. Dostoyevskiy sevgi orqali insonning yolg‘izlik, orzu, umid va armon kabi murakkab ruhiy qatlamlarini ochib beradi. Asardagi bir tunlik uchrashuv qahramon hayotida yorqin, ammo o‘tkinchi lahza sifatida namoyon bo‘lib, bu lahza qahramon uchun baxtning qisqa, ammo kuchli tajribasi bo‘lsa, undan keyingi armon uning butun umriga tatigulik ruhiy izga aylanadi. Dostoyevskiy bu asar orqali shuni ko‘rsatadiki, sevgi va orzu hayotiy haqiqat bilan to‘qnashganda inson ruhida murakkab, lekin zaruriy psixologik va falsafiy sinovlar yuzaga keladi. Bir tomondan, bu sinov insonni ruhiy jihatdan yetiltiradi, uni o‘zini anglashga chorlaydi; ikkinchi tomondan, u inson hayotidagi fojiali, ammo hayotiy zarur bosqichni ochib beradi. Shu sababli, qahramonning his-tuyg‘ulari nafaqat shaxsiy baxt va armon bilan bog‘liq, balki insonga hayot va sevgi haqidagi chuqur haqiqatni anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fyodor_Dostoyevskiy
2. <https://journalss.org/index.php/ust/article/download/6687/6349/12741>
3. <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/4643/4242>
4. Dostoyevskiy F. Oydin tunlar / F. Dostoyevskiy. — Toshkent: Oltin Qalam, 2023.